

HUKMDORLAR VA HARBIY XIZMATCHILARGA BERILADIGAN DIGNITONIMLAR

Xusanova Maqsuda Nishonovna

Renessans ta'lim universiteti "Filologiya"
kafedrasining katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada hukmdorlar va harbiylarga beriladigan dignitonimlarni diaxron va sinxron aspektda o'rganilishi ochib berilgan. Shuningdek, o'z va o'zlashma qatlamga oid so'zlarning lug'aviy ma'nosi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: unvon, hukmdor, harbiy, shad, tosh bitiklar, xon, hoqon,

Harbiy soha vakillariga mutaxassisligi bo'yicha unvonlarni ular erishgan natija va yutuqlariga qarab beriladi. Harbiy unvon nomlari diaxron va sinxron aspektda o'rganilganda bir-biridan farqlanadi. Harbiy unvonlar bo'yicha H.Dadaboyev, A.Matg'oziyev, A.Ibrohimova, A.O'rozboyevlar ilmiy tadqiqot olib borgan. Ma'lumki, harbiy unvonlar qadimdan qo'llanib kelgan, O'rxun-Enasoy obidalarining V-VII asrlarga oid bitiktoshlarida "Shad" unvon uchraydi. To'nyuquq bitiktoshi ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan Eltarish xoqonning maslahatchisi va sarkardasi To'nyuquqqa bag'ishlab 712-716-yillarda yozilgan. "Yetti yuz kishini uyushtiradigan boshlig'i shad edi. Unvon ol, - dedi. Unvon oladigani men edim -Bilga To'nyuquq". Tosh bitiklarda qayd etilishicha, To'nyuquq qahramonliklar ko'rsatib, **shad** unvonini olishi eramizning 700 (yetti yuzinchi) yillarida ro'y bergan. Bu unvonlar boshqalardan ko'ra tajribali, bilimli, qobiliyatli va qahramonliklari bilan ajralib turgan kishilarga berilgan. Shad unvoni qondosh va biror beklik yoki viloyatga hokimlik qilgan shahzodalarga ham berilgan[1].

Xoqon so'zi xon ma'nosini ifodalagan: Bu termin "Qutadg'u bilig"da ham uchraydi: "*Kitabka bitindi bu haqan ati*". Adabiyotlarning ko'pchiligida xon so'zining turkiy qatlamga mansubligi qayd etiladi. Biroq turkologlar, jumladan, N.A.Baskakov ushbu so'z kelib chiqishi xitoy tiliga aloqadorligini ko'rsatadi[2]. Shuningdek, olim "xon" so'zi qadimgi turkiylar, mo'g'ullar va qadimgi bolg'arlarda "davlat boshlig'i" ma'nosida qo'llanganini, mazkur so'z xitoy tilida kuan-xon so'zining fonetik o'zgarishga uchragan shakli ekanini ta'kidlaydi[3]. Tilshunos olim H.Dadaboyev ushbu so'zning etimologiyasini G.Dyorfer tadqiqotlariga asoslangan holda bayon qiladi[4]. Eski o'zbek tilida xoqon so'zi "oliy hukmdor" ma'nosini bildirib, xon so'ziga nisbatan uni ulug'lash, hurmat qilish bo'yog'i ustunroq ekanini ko'ramiz. Sh.Rahmatullayev ushbu so'zlarni, ya'ni xon (kichikroq davlatning mutlaq hukmdori, shoh) va xoqon (yirik davlatning mutlaq hukmdori, ulug' xon) [5] ma'nosida qo'llangan degan fikrni qayd etadi.

Xon dignitonimi "xon, sulton, davlat boshlig'i" kabi ma'nolarni bildirgan. U quyidagi ma'nolarni anglatgan: 1. Xon, imperator. 2. Xon faqat xonlar avlodidagi sultonlarga berilgan. "Xon" so'zi xitoy tilida – ke (ulug') va kuan (xon) so'zlarining

birikishidan hosil bo‘lgan. Qadimgi bitiktosh yodgorliklarida ham xon termini ishlatilgan. Turk bo‘dun qanin bilmayyun Tabg‘ach adrildi[6] (Turk xalqi xonini topolmay, Tabg‘achdan ayrildi). V.V.Bartold ta’kidlagandek, qadimgi turkiy tilda xon “qan” tarzida uchraydi. O‘rta Osiyo mo‘g‘ullar tomonidan ishg‘ol etilgach, davlatni Chingizxon boshqargan. Chingizxonning avlodlariga xon unvon tariqasida berilgan. Shuningdek, “xon” so‘zi ism tarkibida qo‘llaniladi. “Yunusxon va Esan Bug‘raxon Vaysxonning o‘g‘lonlari edi”(“B”,9b).

“Sayf uddavla” unvoni. Somoniylarga qarshi isyon ko‘targan turk amirlari Abu Ali Simjuriy va Foqiqqa qarshi janglarda otasining qo‘shinida qatnashib, katta jasorat ko‘rsatgani uchun Abulqosim Mahmud ibn Sabuqtegin “Sayf uddavla” unvoni bilan 994-yili taqdirlanadi. U 998-1030-yillarda g‘aznaviylar davlati hukmdori bo‘lgan. “Sayf uddavla” so‘z birikmasi arabchadan olingan bo‘lib, “davlat shamshiri” degan ma‘noni bildiradi. Bizningcha, bu unvonni Mahmud G‘aznaviyga tarqoq davlatlarni umumlashtira olgani, davlatini ilm, ma‘rifat markaziga aylantirgani uchun berilgan.

“Nosiriddin ad-davla” (Davlat va din himoyachisi). Shijoatkor sarkarda Sabuqtegin aynan Somoniylar amiri Nuh II (976-997-y.) dushmanlariga qarshi kurashda yordam berib, “Nosiriddin ad-davla” (Davlat va din himoyachisi) degan sharaflı nomga sazovor bo‘ladi[7].

Podshoh leksemasi fors-tojik tilidan turkiy tiliga o‘zlashgan. Bu mutlaq hukmronlik qiluvchi hukmron unvoni va shunday unvonga ega shaxs, shoh degan ma‘noni anglatadi. Podsho(h) leksemasi xalq og‘zaki ijodida faol qo‘llangan. Ushbu leksema ruslar istilosidan keyin o‘zbek tilida keng qo‘llana boshladi. Mazkur unvonning sinonimi sifatida sulton, xon leksemalari ishlatiladi. “Sulton” unvoni arabcha so‘z bo‘lib, “oliy hukmdor, podsho” ma‘nosida Navoiy asarlarida ko‘p uchraydi. Sulton unvoni buyuk davlatlarning oliy unvoni bo‘lib, to mo‘g‘ul istilosiga qadar qo‘llangan. Keyinchalik, Temuriylar davlat boshqaruvi davrida faxrli, sharaflı sifatida keng iste‘molda bo‘lgan. “Dehli Sulton A‘loddinning ilgida edi. Bu tabaqa sayyidtur. Temurbek Dehlini olg‘onda Dehli hukumatini bularning otalarig‘a berib edi”.

Qo‘rboshi-harbiy unvon. Xon va amirlar davrida qurol-aslaha ombori, qo‘rxona boshlig‘i ma‘nosini ifodalaydi. 1918-yilning oxiridayoq mustaqil harakat qilishga urinayotgan yirik qo‘rboshilarning faoliyatini Madaminbek boshqarishga muvaffaq bo‘ldi[8].

Qushbegi - qo‘shin boshlig‘i, oliy harbiy unvon. To‘qsaba harbiy bo‘linma boshlig‘i, polkovnik ma‘nosini bildiradi[9]. Beklar begi, qo‘rboshi-harbiy unvonlar bo‘lib, qurol-aslaha ombori, qo‘rxonaning boshlig‘i ma‘nosini anglatga, yasovul urush vaqtida saralangan jangchilar bo‘lib, hozirgi ofitser tarkibidagi askar vazifasini bajargan. Qo‘rboshi, mingboshi, yuzboshi, o‘nboshi, sarkarda, yasovulboshi, qushbegi kabi harbiy unvonlar o‘rmini XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Turkiston Rossiya mustamlakasiga aylangach, starshina, leytenant, kapitan, mayor, polkovnik, general, marshal kabi unvon nomlarini ifodalovchi o‘zlashma so‘zlar egallagan va lug‘atimizda qo‘llana boshladi.

Harbiy armiya xizmat vazifasini sidqidildan bajarayotgan, yurti uchun jonini berishga tayyor askarlarimiz moddiy va ma‘naviy jihatdan taqdirlanadi. O‘zbekiston armiyasi, asosan, quruqlikdagi qo‘shinlardan iborat. Harbiy sohadagi eng oliy unvon bu- generallik unvonidir.

General (lot. gēgalis- umumiy; bosh, oliy) 1.Oliy qo‘mondonlik tarkibiga beriladigan harbiy unvon. Armiya generali. 2.Shu unvonga ega bo‘lgan shaxs (O‘TIL,II,210). General bir nechta kombatlar bilan yerto‘lasiga kirishdi. Ruslar istilosidan keyin bu unvonlar o‘zlashma leksemalarga aylangan. Bugungi kunda muqobil shakli bo‘lmagani uchun shu holatda ishlatiladi.

Polkovnik polyak tilidan olingan bo‘lib ,podpolkovnikdan yuqori general-mayordan quyi ofitserlik unvoni ma’nosini anglatadi (O‘TIL,III,843).

Mayor (l.major-katta) kapitandan bir daraja yuqori ofitserlik unvoni ma’nosini anglatadi (O‘TIL,III.760).

Kapitan (fr.peshqadam, sardor) Bir qancha mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston qurolli kuchlari, ichki ishlar tizimida katta leytenantdan yuqori, mayordan kichik ofitserlik (zobitlik) unvoni va shu unvonga ega bo‘lgan ofitser ma’nosini anglatadi (O‘TIL,III,1036).

Mazkur harbiy dignitonimlar o‘zbek tilida hozirgi kunda ham faol ishlatilmoqda, chunki ular harbiy unvonlarning ma’nosini aniq va ravshan anglatib, keng omma uchun tushunarli bo‘lib qolgan.

Adabiyotlat ro‘yxati

1. Рахмонов Н. Турк хоқонлиги. – Тошкент, 1993. – С. 40.
2. Баскаков Н.А. Тутулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства // Советская тюркология. – Москва, 1989. – № 1. – С.61.
3. Баскаков Н.А.Тюркские элементы в «Слове о полку Игореве». – М .: Наука, 1985 . – С. 42.
4. Дадабаев Х.. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. –Тошкент, 1991. – С-61-63.
5. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II том. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 401-402.
6. Исҳоқов М., Содиқов Қ., Омонов Қ. Мангу битиклар. – Тошкент, 2009. – 155 б.
- 7.Эшов Б.Ж., Одилов А.А. Ўзбекистон тарихи. 1-жилд. – 2014. – **231 б.**
8. <https://uzpedia.uz/pedia/madaminbek>
9. Дадабоев Х. Тарихий ҳарбий терминлар луғати. – Тошкент, 2003. – Б.162.